

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING DINIY VA DUNYOVIY ILDIZLARI.

Mazamqulov Eldor Maxammadqul o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ishda mediamakonning yoshlar ma'naviy rivojiga ta'siri va uning ijobiy yo'nalishda shakllanishidagi roli yoritilgan. Globallashuv sharoitida yoshlarning axborot oqimiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi media kontentdan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Media, globallashuv, yoshlar, madaniyat, axborot, internet va ijtimoiy tarmoq, media madaniyat, raqamli kommunikatsiya, milliy madaniyat, yoshlar ma'naviyati.

Diniy va dunyoviy qadriyatlarda bag'rikenglik g'oyasiga tayangan O'zbekistonda xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan turli millat vakillari hamjihat bo'lib, bir zaminda yashab, mehnat qilib kelayotgan bir vaqtda "dunyoviylik" tamoyilini to'g'ri anglash, jamiyat, davlat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash masalasi nihoyatda dolzarbdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoniga muvofiq ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash maqsadida:

- "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish;

- islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish;

– jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

– diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish kabilar sohaning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi. Bundan tashqari, 2019-yil 4-sentyabrdagi “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident Qaroriga muvofiq yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida, ilm-ma'rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalash, uning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qo'yilgan”.

O'zbekiston aholisining 94 foizdan ko'prog'i e'tiqod qiladigan Islom dinida ham dunyoviylik va diniylik chegaralari belgilanmagan. Islom ta'limotiga ko'ra, insonlarning dini, joni, nasabi, aqli va moliga foyda keltiradigan har qanday amal diniy jihatdan ham ma'qullangan, savobli ish hisoblanadi. Islomda dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmay, balki, dinining muqaddas manbalari – Qur'oni Karim va Hadislarda ham inson bu dunyosi uchun ham harakat qilishi kerakligi uqtiriladi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzida insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga munosabatini namoyon qiladi. Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an'alarini, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olsa, diniy qadriyatlar diqqat markazida inson va insoniylik masalasi asosiy o'rin tutadi. Diniy-dunyoviy qadriyatlar uyg'unligida tarbiya topgan shaxs jamiyat, davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi yangi-yangi innovatsion g'oya va texnologiyalarni kashf etishi, eng so'nggi ilmfan yutuqlarini qo'lga kiritishi, dunyoga o'z millati intellektini tarannum etishi maqsadga muvofiqdir.

“Ma'naviy tarbiya jarayonida dunyoviy va diniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ishlarini tashkil etish bevosita tarbiyaning usul va vositalari orqali amalga oshiriladi. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishdir”.

GulDU va GulDPI talabalari bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida talabalarning amaliy dindorlik xususiyatlarini, shuningdek, talabalarning ommaviy axborot vositalariga munosabatini aniqlash mumkin bo'ldi. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov asosida ularning qanday yangiliklarga duch kelishiga qarab, din va din arboblari munosabatning bog'liqligi tahlil qilindi. Bundan tashqari, dindorlikning asosiy ko'rsatkichlari, shuningdek, dinga oid yangiliklarni olish manbalari aniqlangan.

Diniy identiklik birinchi navbatda oilada shakllanadi. Talabalar odatda erta bolalik davrida diniy qabul qilish jarayonini boshdan kechiradilar. Dinni qabul qilish jarayoni ko'p jihatdan namoyon bo'ladi: sunnat (o'g'il bolalar uchun), masjidga tashrif buyurish, din haqida suhbatlashish, shuningdek, oila a'zolarining namunasi. Elektron texnologiyalardan faol foydalanuvchi bo'lgan talabalar ommaviy axborot vositalarida (asosan televidenie va Internetda) din haqidagi yangiliklarga duch kelishadi. Biroq, dinga oid ma'lumotlarni olish kerak bo'lganda, talabalar birinchi navbatda o'zlari tanish bo'lgan din xodimlariga, dindor qarindoshlariga, biror mavzuda obro'li bo'lib ko'ringan do'stlariga va Internetdagi ma'lumotlarga murojaat qilishadi. Biroq, talaba yakuniy qarorni mustaqil ravishda qabul qiladi.

Bugungi kunda oila, maktab, davlat, masjid va cherkovdan tashqari, bir-biri bilan raqobatlashadigan yangi diniy bilim manbalari paydo bo'ldi. Diniy arboblar va tashkilotlar o'z manfaatlarini turli mexanizmlar yordamida, jumladan, ommaviy axborot vositalarida paydo bo'lishi orqali ifodalaydi: ular o'z ommaviy axborot vositalarini yaratadilar yoki axborot maydonida, media makonda ma'lum bir konfessiya vakili bo'lgan alohida diniy vakillar paydo bo'lishi mumkin.

Uzoq vaqt davomida diniy identiklik ijtimoiy subyektlarning bevosita ta'siri tufayli shakllandi: oila a'zolari, ta'lim tashkilotlari, diniy jamoalar. So'nggi o'n yilliklarda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynadi. Daniyalik kommunikatsiya tadqiqotchisi S.Hyavard mediatizatsiya nazariyasi doirasida "ommaviy axborot vositalarining diniy jamoalarga ta'siri konsepsiyasini taklif qildi. Hyavard konsepsiyasiga ko'ra, mediatizatsiya - bu ommaviy axborot

vositalarining madaniy va ijtimoiy institutlarning bir qismiga aylanuvchi jarayonidir. Media diniy urf-odatlar, e'tiqodlar va diniy tashkilotlarning tuzilishiga ta'sir qiladi". Ijtimoiy institutlar media faoliyatiga bog'liq bo'lib qoladi, chunki ommaviy axborot vositalari ularning jamoatchilik imidjini shakllantiradi.

Media odamlarning din haqidagi tushunchasini o'zgartirishga yordam beradi. Media dunyoviy qadriyatlarni e'firog'ga uzatadi va shu bilan an'anaviy diniy institutlar obro'siga qarshi chiqadi. Ijtimoiy institutlar, jumladan, diniy institutlar jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lishi uchun media mantig'iga moslashishi kerak.

S.Hyavard "mediatlashtirilgan dinning uchta shaklini aniqladi: 1) diniy ommaviy axborot vositalari, 2) banal din va 3) diniy jurnalistika. Diniy medialar ommaviy axborot vositalari (ijtimoiy tarmoqlardagi diniy jamoalar) va shaxsiy (diniy arboblarning yuritadigan akkauntlar) ga bo'linadi".

Mediada muqobil diniy ta'limotlar (sehr, tasavvuf va g'ayritabiiy) namoyish etiladi. Din haqidagi ma'lumotlarning qanday taqdim etilishi texnologik imkoniyatlarga (televideniye, bosma, raqamli media) va matn janriga bog'liq. Media makonida diniy mavzuning paydo bo'lishi teskari jarayon (desekulyarizatsiya) sodir bo'layotganidan dalolat bermaydi. S.Hyavardning fikricha, "mediada din haqida qancha ko'p yozilsa, aholining diniy tashkilotlarga amaliy jalb etilishi shunchalik kamayadi".

Empirik tadqiqot usullari va ishtirokchilari. Empirik asos talabalarining dindorlik xususiyatlarini sifat va miqdor jihatdan o'rganish natijalariga asoslanadi. Talabalarining diniy yangiliklarga munosabati, shuningdek, ularning dindorlik xususiyatlarini o'rganuvchi sifatli tadqiqot 2024-yil may oyida o'tkazildi. Tadqiqot usuli intervyu bo'lib, unda milliy va yevropa guruhlarining talabalarining ishtirok etishdi.

2024-yilning aprel va may oylarida GulDU va GulDPI talabalarining ishtirok etgan onlayn so'rovnoma o'tkazildi va ular guruh (klaster) tanlovi bo'yicha saralandi. Namuna hajmi 133 kishini tashkil etdi. GulDU va GulDPI talabalarining dindorlik darajasini baholash quyidaqicha amalga oshirildi.

Respondentlarning 100 foizi diniy bayramlarni (Qurbon Bayrami, Qurbon hayiti, Pasxa, Rojdestvo) nishonlaydi. Savol ochiq edi, ikki respondent Pasxa

bayramini Pasxa kulichlari uchun nishonlashlarini, ikkitasi esa «ota-onalarini hurmat qilish uchun» Pasxa bayramini nishonlashlarini qo'shimcha qildilar. Yevropa guruhlarini respondentlarining aksariyati Rojdestvoni nishonlaydi. Milliy guruhlardan 100% respondentlar ochiq savolga javob berar ekan, Qurbon hayiti va Ro'za hayitlarini nishonlashlarini ta'kidladilar.

Deyarli barcha respondentlar axborot manbai sifatida Internetni afzal ko'radi. Talabalarning salmoqli qismi (75%) televizorda diniy ko'rsatuvlarni ko'rmaydi. 100% radio eshitmaydi. Bosma ommaviy axborot vositalarini o'qimaydiganlar ulushi (65%) biroz pastroq. Talabalarning 81 foizi onlayn mediani ishonchli axborot manbai deb biladi. Respondentlarning 19 foizi onlayn OAVga ishonch haqidagi savolga aniq javob bera olmadi.

Respondentlarning aksariyati diniy mazmundagi yangiliklarni OAVda, ayniqsa Telegram'da uchratishgan. Respondentlarning atigi 18 foizi bunday yangilikka duch kelmagan. Bunday yangilikka duch kelmaganlar orasida ularning aksariyati hech qachon masjid yoki cherkovga bormaydiganlardir. Respondentlarning deyarli uchdan bir qismi (32%) haftada bir marta din haqidagi yangiliklarga duch kelishadi. Respondentlarning taxminan 17 foizi har kuni, oyiga bir necha marta 26 foizi va ikki-uch marta 25 foizi shunga o'xshash yangiliklarga duch kelishadi. Aytishimiz mumkinki, diniy nutq u yoki bu shaklda axborot maydonida mavjud.

“Dunyoviylik tushunchasini diniylik bilan mutlaq qarama-qarshi qo'yish to'g'ri emas. Diniylik va dunyoviylik bir-biriga mutlaq zid tushunchalar ham emas. Ular dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usullaridir. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Dindorlik esa qalbga bog'liq hissiyot. Uni barchaga majburiy singdirish hech qaysi diniy tamoyillarga to'g'ri kelmaydi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo'lsada, jamiyatdan ajralmagan. Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma'naviy qiyofasining muhim qismlaridan hisoblanadi”.

Islom dinida dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi. Islom dinining muqaddas manbalari – Qur’oni karim va Sunnada ham dunyoviylik tamoyillari asosini ko‘rishimiz mumkin. Qur’oni karimdagi “Dinda (dinga) zo‘rlash yo‘q” (Baqara, 256) oyatida dunyoviylikning eng muhim asoslaridan biri mujassam bo‘lgan. Unga ko‘ra, diniy hayot tarzini majburlab singdirish mumkin emas. “Kahf” surasi 29-oyatida: “...xohlagan kishi imon keltirsin, xohlagan kimsa kofir bo‘lsin”, deb marhamat qilinadi. Bu oyatda ham “har bir inson imon keltirish masalasida ixtiyorli ekani, o‘z amali uchun o‘zi mas’ul bo‘lishi ta’kidlanadi”.

Bugungi kunda ko‘pchilik davlatlar o‘z poydevorini e’tiqodiy tamoyillar emas, balki fuqarolik negiziga quradilar. Islom dini ta’limotida davlat siyosiy tuzilmasining muayyan shakli ko‘rsatilmagan. Faqatgina umumiy tamoyillar belgilangan. Ulamolar bu tamoyillar 4 ta ekanini aytadilar: tenglik, erkinlik, adolat va mashvarat. Bu tamoyillar o‘rnatilsa, davlat qanday shaklga ega ekanidan qat’iy nazar, u islom diniga muvofiq keladi.

Ayrim buzg‘unchi kuchlar tomonidan zamonaviy dunyoviy qonunchilik asosida hayot kechirish musulmonlar uchun maqbul emasligi haqida soxta da’volar tarqatilmoqda. Vaholanki, dunyoviy qonunlar haqida islom ulamolari ta’kidlaganidek: zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq chiqarilgan qonunlar shariatga zid kelmasa, unday qonunlar shariatdandir. Zero, har bir shariat inson manfaati uchun yuborilgan, jamiyatlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlab chiqargan qoidalari garchi shariatdan olinmagan bo‘lsada, lekin shariatga zid kelmasa ular ham shariatga muvofiq (shar’iy) hisoblanaveradi.

Demak, islom dinida dunyoviylikka dinsizlik sifatida baho berilmagan. Dunyoviy ishlar shaxs va jamiyat manfaatini ko‘zlar ekan ular din ta’limotlarida doim qo‘llab-quvvatlagan. Din dunyoviy ishlarning ma’naviy jihatlarini tartibga solib turgan. Demokratik tizimlarning konstitutsion normalarida davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar masalasidagi ikki jihat yaqqol ajralib turadi:

- din jamiyatda insonparvarlik ruhiyatining shakllanishida yuksak ma'naviyat bulog'i, beqiyos axloqiy tarbiya manbai, insonlarni halollik, poklik kabi fazilatlarga undvchi qadriyat sifatida e'tirof etiladi;
- dindan g'arazli maqsadlarda foydalanish, diniy omildan foydalanib siyosatga aralashish, hokimiyatga intilish kabi holatlar man etiladi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish bosqichida diniylik bilan dunyoviylik o'rtasidagi yangi nisbatni shakllantirish har doim ham silliq kechmadi. Bu yo'lda musulmon aholi diniy ongini radikallashtirish va siyosiylashtirishga qaratilgan urinishlar hamon davom etmoqda.

Dunyoviylik tamoyili mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li – dunyoviy demokratik yo'l. Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi. Respublikamiz qonunchiligida kimning qanday e'tiqodga ega bo'lish-bo'lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e'tiqod qonunga xilof bo'lmasligi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/368627>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4436 Qarori, 2019-yil 4-sentyabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4500897>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Т., 2021. – Б.288.

5. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи. 2016 йил, 15 декабрь
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.:Ўзбекистон, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan. 24.06.2019 yil
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi
9. Мирзиёев Ш.М. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.*/ <https://president.uz/uz/lists/view/4463>
10. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish - oliy saodatdir. - Т.: "O‘zbekiston", 2007.